

## THE IMPORTANCE OF GAME IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN

**Tojiboyeva Malokhathon Muhammadsidikovna**

Andijan region, Pakhtaabad district

10th MTT tutor

**Abstract:** We all know that preschool education is the lowest, but also the most important stage of the education system, and the head of state is working hard to improve the system. Resolution "On radical improvement of the management of the preschool education system", "On pre-school education and upbringing", "On the Concept of development of the preschool education system until 2030" and the laws are among them. All these decisions and laws will help our children, who are the owners of tomorrow, to receive a quality education and grow up healthy and well-rounded.

**Basic concepts:** Communication, speaking skills, dialectics, linguistics, grammar, games, activities

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA O'YINNING AHAMIYATI

**Tojiboyeva Maloxatxon Muxammadsidiqovna**

Andijon viloyati, Paxtaobod tumani

10-MTT tarbiyachisi

**Tayanch tushunchalar:** muloqot, nutqiy ko'nikma, dialektik, lingvistika, grammatika, o'yin, faoliyat.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim ta'lim tizimining eng quyi, shu bilan birga, eng asosiy bosqichi ekanligi qayta-qayta ta'kidlanib, davlat rahbari tomonidan tizimni takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilib borilmoqda. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida" gi qaror va qonunlar shular jumlasidir. Mazkur qaror va qonunlarning barchasi ertangi kun egalari bo'lgan bolajonlarimizning sifatli

ta'lim olishlari, har tomonlama sog'lom, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladi.

Jahon arenasida o'zining dadil qadamlari bilan odimlanayotgan Yangi O'zbekistonning kelajagi yoshlar qo'lida ekan, ular yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, intellektual salohiyatli, axborot-texnologiyalar bilan qurollangan va shu bilan birga, xorijiy tillarda bemolol so'zlasha oladigan shaxs sifatida tarbiyalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat rahbarining joriy yilning 6 may kuni o'tkazgan videoselektorida O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda halqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshishi "Bog'cha-maktab-oliy ta'lim-korxon" zanjirini amalga oshirish payti kelganini ta'kidlab o'tdi.

Demak, xorijiy tillarni maktabgacha ta'lim yoshidanoq o'rgatish davr talabi ekan, uning ilmiy asoslari qanday ekanligi haqida fikr yuritimiz.

Ma'lumki, bolalar bog'chalarida xorijiy tillarni o'qitishning vazifasi, eng avvalo, amaliy ahamiyatga ega, ya'ni ona tilidan boshqa tildagi nutq faoliyatida ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bolalarga maktabgacha ta'lim yoshidanoq xorijiy tillarni o'rgatish ularning ta'limning keyingi bosqichlarida qiynalmasdan muvaffaqiyatga erishishlarida imkoniyat yaratadi. Shu bois ham, so'nggi yillarda xorijiy tillarning ta'limining mazmunida izchillik va uzviyligini ta'minlash, ta'lim turlarida xorijiy tillarni o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnologiyalarini qo'llash va darsni didaktik loyihalashtirish kabi muammolarga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim berishda eng asosiy usuli bu-o'yin. Demak, xorijiy tillarni o'rgatishda ham o'yin faoliyati muhim vosita hisoblanadi. Bolalarda o'yin orqali diqqat, xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o'yin jaraenida o'zini erkin his etadi. O'yin o'ynalayotgan paytdagi ma'lumotlarni ham bajonidil qabul qiladi, ya'ni o'yin faoliyati orqali beriladigan ma'lumotlar bolalar xotirasidan muammolarsiz o'rin oladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari o'yinlar jarayonida xorijiy tillarni o'rganar ekan, albatta, ma'lumotlarning ko'rgazmalilik tamoyillariga amal qilishi maqsadga muvofiqdir. Shu faoliyat vositasida u tashqi ijtimoiy olamni biladi, uning dunèqarashi va ma'naviyatiga aloqador bilimlar zahirasi to'planadi. Ijtimoiy tasavvurlar bola ongidagi shunday bilim, tushuncha, g'oya va tasavvurlar majmuiki, ular bevosita bolani o'rab turgan ijtimoiy hodisalar, qadriyatlar mohiyatidan kelib chiqadi va bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Buyuk pedagog K.D. Ushinskiyning ta'kidlashicha, chet tilida so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi.

Xorijiy tillarni o'rgatishdagi eng asosiy vosita o'yin ekan, o'yinlarga xos bo'lgan bir qator didaktik holatlarni sanab o'tishni joiz deb bildik. Ular quyidagilar:

- pedagogikada o'yinlar turli yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish shakli sifatida namoyon bo'ladi;
- o'yinlar bolalar faoliyatining erkin shakli bo'lib, mazkur jarayonda ular atrof-olamni anglaydilar, o'rganadilar, shaxsiy ijodiy faoliyatlari uchun qulay sharoitga ega bo'ladilar, mustaqil bilish va o'z faoliyatlarini jadal tarzda namoyon qilish imkoniyatini qo'lga kiritadilar;
- o'yinlar bolalar uchun rivojlanish amaliyoti hisoblanadi;
- o'yinlar jarayonida bolalar aql-idrokka tayangan holda ijod qiladilar, o'z imkoniyatlari va ijodiy faoliyatlarini namoyon etadilar

Maktabgacha yoshdagi bolalar harakatli o'yinlarni katta qiziqish bilan qabul qilganliklari sababli, ularga bir necha marta takrorlab yod oldirishdan ko'ra harakatli o'yinlar yoki audio-video vositalar orqali namoyish etish ko'proq samara beradi. Bola tezda o'zi yoqtirgan so'z va iboralarni yod oladi, nutqida qo'llay oladi. Dars mashg'ulotlarida o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi bolada beixtiyor his-tuyg'ularni uyg'otadi. Xorijiy tillarni o'rganuvchi bolalarning nutqi faol rivojlanadi, so'z-lug'at boyligi oshadi grammatik jihatdan gapni to'g'ri tuzish ko'nikmasiga ega bo'ladilar va eshitish qobiliyati shakllanadi.

O'yin orqali bolalar narsa-buyumlarning ingliz tilidagi nomlarini xotirasida tez saqlab qoladilar. Bog'cha bolalari shu kabi o'yinlar orqali so'zlarni hech qanday qiyinchiliksiz takrorlash yoki ular uchun zerikarli bo'lgan takrorlash va yod olishlarsiz esida saqlay oladilar va shu bilan birga, fikrlash doirasini kengaytiradi, hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish xususiyatlarini kuchaytiradi. Shuni ta'kidlash joizki, har bir o'yin o'ziga xos qonun-qoidaga ega, bu esa bola miyasini charxlashga, duch kelgan qiyinchiliklarni sabr-qanoat va tabassum bilan yengishga chorlaydi. Bolalarga o'yin davomida boshlovchilik qilayotgan pedagog esa bolajonlardan iliq tabassumini ayamasligi, ularni qo'llab-quvvatlashi, kichkina sovg'alar bilan rag'batlantirishi muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017 y. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 3 oktyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konyepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
6. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent-2013
7. Maktabgacha pedagogika. O'quv-uslubiy majmua. Termiz-2018
8. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi. – Qarshi: «Nasaf» nashriëti, 2011. – 229 b.
9. Babanskiy Yu. K. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований: Didakticheskiy aspekt : nauchnoe izdanie. – M.: Pedagogika, 1982. - Bibliogr.: S. 188-190.
10. Bonk N. A. Angliyskiy dlya malenkix. – M.: Izd-vo Ruchenkina, 1997. – 171 s.
11. Gross K. Dushevnyaya jizn rebenka / K.Gross. Kiev, 1996. – 242 s